

KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDAGI YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna

ChDPU Pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

To‘rayeva Jasmina Sunnatullo qizi

ChDPU Pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika:tiflopedagogika yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko‘zi ojiz o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bosqichlari haqida ma’lumot berilgan. Ayniqsa, ko‘zi ojiz insonlarning kasbiy o‘zini belgilashdagi qiyinchiliklar, kasbga yo‘naltirish va kasbiy tayyorgarlik jarayonlari muhokama qilingan. Maktabgacha yoshdan tortib, o‘rta va yuqori maktab yoshigacha bo‘lgan davrda kasbga yo‘naltirishning bosqichlari va metodlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ko‘zi ojiz bolalar uchun ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatiga oid qarorlar va yangi tadbirlar ham muhokama qilinadi. Maqola, ko‘zi ojiz bolalar uchun kasbiy tayyorgarlikning muhimligi haqida ham batafsil ma’lumot beradi.

Аннотация: В этой статье представлена информация об этапах профориентации слепых учащихся. В частности, обсуждались трудности профессионального самоопределения слепых людей, профориентации и процессов профессиональной подготовки. Рассмотрены этапы и методы профориентации в период от дошкольного до среднего и старшего школьного возраста. Также будут обсуждены решения и новые меры государственной политики, направленные на улучшение качества образования детей с нарушениями зрения. В статье также подробно рассказывается о важности профессиональной подготовки для слепых детей.

Annotation: This article describes the stages of vocational guidance for blind students. In particular, the difficulties of professional self-determination of blind people, professional orientation and professional training processes have been discussed. Stages and methods of Career Guidance have been considered from preschool to middle and high school age. Public policy decisions and new activities aimed at improving the quality of education for blind children are also discussed. The article also details the importance of professional training for Blind Children.

Kalit so‘zlar: ko‘zi ojiz shaxslar, kasbiy faoliyat, kasbiy yo‘naltirish, kasbiy imkoniyat, o‘z-o‘zini anglash, maxsus pedagoglar.

Ключевые слова: слепые личности, профессиональная деятельность, профессиональная ориентация, профессиональные возможности, самосознание, специальные педагоги.

Keywords: blind persons, professional activity, professional orientation, professional opportunity, self-awareness, special educators.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy sharoitida kasb tanlash erkinligi va mehnat bozorida raqobat alohida ahamiyatga ega. Jamiyatda talab qilinadigan kasblarning muvaffaqiyatli rivojlanishi kelajakda asrning moddiy mustaqilligini, uning ijtimoiy ahamiyatini va o‘z-o‘zini hurmat qilishni belgilaydi. Bu borada Mahmud Zamaxshariyning aytganlari juda o‘rinlidir: “Mehnat insonni uch balodan: bezorilikdan, o‘g‘rilikdan, qashshoqlikdan asraydi”.

Binobarin, kishi keyingi ish yo‘lini tanlashga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishga nihoyatda majburdir. Shuning uchun har qanday inson hayotidagi muhim bosqich – bu kasbiy jihatdan o‘zini-o‘zi belgilash, ya’ni shaxsni kelajakdagi kasbiy faoliyatga munosabati va uni amalga oshirish bilan shakllantirish jarayoni. Ko‘rish imkoniyati cheklangan insonlar uchun bu yanada dolzarbdir. Zamonaviy iqtisodiy vaziyatda tanlangan kasb mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lib qolishiga kafolat yo‘q. Shu munosabat bilan, kasbiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash faqat kasb tanlash va kasbiy ta’limdan keyin ishga joylashish bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu doimiy, murakkab, ko‘p bosqichli jarayon sifatida tavsiflanadi.

Zamonaviy maxsus adabiyotlarda ko‘zi ojiz insonlar kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning quyidagi bosqichlari ajralib turadi:

- boshlang‘ich mehnat ko‘nikmalari shakllanadigan mактабгача yosh – bolaning kasblarga bo‘lgan qiziqishi rolli o‘yinlarda paydo bo‘lishi mumkin, ularning suyjeti professional kattalar faoliyati bilan bog‘liq;
- boshlang‘ich maktab yoshi – bolaning inson hayotidagi mehnatning rolini, turli xil faoliyat turlarida anglashi va kelajakdagi kasb haqida g‘oyalarni shakllantirishning boshlanishi bilan tavsiflanadi;
- o‘rta maktab yoshi – bu davrda kasbni tanlash bilan bog‘liq o‘z manfaatlari va qobiliyatlari to‘g‘risida xabardorlik paydo bo‘ladi, ko‘pincha kasblarni tahlil qilish asosida kasbiy o‘zini o‘zi anglash shakllana boshlaydi. Ushbu bosqichda yangi professional yo‘naltirilgan motivlar paydo bo‘lishi mumkin;

- katta maktab yoshi – kelajakdagi kasb uchun zarur bo‘lgan o‘quv fanlarini tanlab chuqur o‘rganish amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda kelajakdagi kasbni yangi, ongli ravishda tanlash zarurati tug‘iladi;
- yoshlik – bu davrda, qoida tariqasida, kasbiy tayyorgarlik, ma’lum bir kasb egasi darajasida o‘z taqdirini o‘zi belgilash amalga oshiriladi. O‘z taqdirini o‘zi belgilashning keyingi bosqichlarida o‘rtा kasbiy faoliyat, malakani oshirish yoki boshqa kasbni rivojlantirishga yo‘naltirish amalga oshiriladi.

Shunday qilib, kasbga yo‘naltirish – bu ijtimoiy, tibbiy, psixologik, pedagogik va iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi bo‘lib, u iqtisodiyot talablarini, shaxsiy imkoniyatlarni, shaxsning o‘ziga moyilligi va manfaatlarini hisobga olgan holda shaxs tomonidan kasb tanlashni amalga oshirishga qaratilgan.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilar orasida yetakchi ijodkorlikni rivojlantirish, kasbiy faoliyatga moyillikni aniqlash, o‘quvchilarning psixofizik xususiyatlar va istaklarini hisobga olgan holda individuallashtirish, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash, o‘zini anglaydigan shaxsni tarbiyalash va uni jamiyatga erkin qo‘shish kabi maqsadlarni hal qilish uchun maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil qilish lozim. Kasbga yo‘naltirish butun o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. Kasbga yo‘naltirish jarayoni ko‘zi ojiz bolaning mактабда o‘qigan yillari davomida uzlusiz bo‘lishi hamda bolaning shaxsiy xususiyatlari, funksional imkoniyatlari va so‘rovlarga maqbul darajada mos keladigan kasbiy faoliyat sohasini tanlash qobiliyatini inobatga olgan holda shakllantirilishi kerak. Bu jarayon o‘quvchilarning yoshiga qarab o‘zgaradi. Shuningdek, o‘quvchilarning ma’lum bir yoshi uchun eng muhim quyidagi vazifalarni belgilash va hal qilishdir:

-  1-4 sinflar: o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash, shartlar, yosh xususiyatlari va qiziqishlarini majburiy hisobga olgan holda mehnat dunyosi bilan tanishish.
-  5-9 sinflar: kasb tanlash va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan qiziqishlari, qobiliyatları, ijtimoiy qadriyatlari to‘g‘risida xabardorlikni shakllantirish: ma’lum bir turmush tarzini yaratish usuli, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish usuli sifatida kasbiy faoliyat g‘oyasini shakllantirish.
-  10-11sinflar: o‘quvchilar barqaror qiziqish va qobiliyatlarni namoyon etadigan fanlarni chuqur o‘rganish asosida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish.

Ko‘rish qobiliyati buzilgan shaxslar kasbiy faoliyat sohasida o‘z taqdirini o‘zi belgilashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ko‘rish qobiliyati buzilgan insonlarni kasb-hunar tanlashga to‘sinqilik qiladigan ko‘plab omillar mavjud. Ko‘zi ojizlarni kasbiy tayyorlash muammosi aksariyat tadqiqotchilarining fikriga

ko‘ra, bu ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan insonlar uchun mavjud bo‘lgan kasblar ro‘yxatining cheklovlaridir. Ko‘rish qobiliyati buzilgan shaxslarni kasbiy tanlashga to‘sinqlik qiladigan omillar nafaqat uning jismoniy holati va u tufayli yuzaga kelgan psixologik xususiyatlarni, balki ko‘pgina o‘rta va oliv kasb-hunar ta’limi muassasalarida kasbiy ta’limni tashkil etish uchun shart-sharoitlarning hamda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar tarkibining yetishmasligi, ta’limni tashkil etish uchun moddiy-texnik baza va boshqa ko‘p narsalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Bunday muammolarni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.04.2022 yildagi PQ-209-son “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘rvuchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga muvofiq “Nurli maskan” maktab-internatlaridagi o‘quv ustaxonalarining yo‘nalish va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kasbga yo‘naltiruvchi o‘quv reja va dasturlar ishlab chiqildi. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-son qarori (<https://lex.uz/docs/-5789981>) ijrosini ta’minalash hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022 yildagi 203-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilingan. Bundan tashqari, maxsus kadrlar yetishmovchiligining oldini olish maqsadida O‘zbekistonda ilk marotaba 2022-yil Chirchiq davlat Pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasini tomonidan tiflopedagogika yo‘nalishi ochildi. Hozir bu yo‘nalishda o‘z sohasining mutaxassislari ta’lim olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. О.Л.Алексеев, Д.В.Алексеева. Профессиональное образование инвалидов по зрению. Екатеринбург 2007.
2. Гиздатуллина Ф. И., Мокшина Н. Г. Основы профориентационной работы с инвалидами по зрению. Научно-методический электронный журнал “Концепт”. – 2015.
3. F.U.Qodirova va Z.X.Xusnuddinova . Tiflopedagogika. Chirchiq. 2023.

4. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova, B.M.Abdullayev, B.Z.Fozilov, Sh.T.Shermuxamedova, Sh.Z.Matupayeva. Maxsus pedagogika asoslari o‘quv qo‘llanma. Chirchiq. 2022.
5. F.U.Qodirova, Z.X.Xusnuddinova. Tiflopsixologiya.
6. Xusnuddinova, Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*.
7. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Inklyuziv ta’limga jalg qilingan zaif ko ‘rvuchi o ‘quvchilarning psixologik xususiyatlari. *Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning echimlari respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari*, 1(1), 156-157.
8. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2022). Ixtisoslashtirilga davlat ta’lim muassassalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish orqali o ‘quvchilarни inklyuziv ta’limga tayyorlash. *International Journal of Philosophical Studies and Social Science*.

A Collaborative Intervention: Measuring the Impact of a Flipped Classroom Approach on Library One-shots for the Composition Classroom

Aralova Madina Baxtiyor qizi

SamSIFL Narpay Faculty of Foreign Languages

Foreign language and literature (English)

2nd stage student of group 23.01

Scientific supervisor: Fotima Nuriddinova

aralovamadina5@gmail.com

+998947552578

Abstract: Instruction librarians teaching one-shot information literacy (IL) sessions to freshman composition classes at academic universities across the U.S. United States experience a familiar set of issues. In response, librarians have produced a large of literature detailing flipped instruction approaches, collaborative case studies with outside departments, and critiques of the library one-shot. However, little research exists describing attempts to combine these three approaches in one study. Both a case study and an impact on assessment study, this article describes a collaborative intervention between the Library Instruction team,